

DAVLAT BOSHQARUVIDA SUN'iy INTELLEKTDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA DOIR XALQARO TAJRIBALAR STATISTIKASI



Rixsiboyev Behzod Alisherovich

Guliston davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb bo'lgan sun'iy intellektning yutuqlari, uning muhimligi, sun'iy intellektdan foydalanishdagi muvaffaqiyatli misollar hamda odmalarning unga bo'lgan munosabati ko'rsatilgan. Sun'iy intellektdan foydalangan holda davlat boshqaruv tizimidan foydalanishdagi loyihalar va uning natijadorlik statistikasi ko'rsatkichlar keltirilgan va tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Davlat boshqaruv, davlat xizmatlari, sun'iy intellekt, AI, innovatsion texnologiyalar, MAI-2030

Davlat boshqaruvida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash va AI asosida amalga oshirilgan muvaffaqiyatli loyihalar borasida xalqaro tajribalar keng ko'lamli tadqiqotlarga va ma'lumotlarga asoslanadi. Oksford tadqiqoti Lloyds Register Foundation tomonidan chop etilgan World Risk Poll 2019 ma'lumotlari tahliliga asoslangan 2019-yilning mayidan 2020-yilning yanvarigacha bo'lgan vaqt oralig'ida o'tkazilgan intervyular asosida 142 mamlakatda yashovchi 154 195 ishtirokchining so'rov ma'lumotlariga ko'ra quyida davlat boshqaruvida AI texnologiyalarini joriy etish va jamiyatda bu texnologiyalar haqidagi fikrlarni ifodalovchi statistik ma'lumotlar bilan tanishamiz:

Xalqaro tajribalar: Estoniya: Estoniya elektron davlat boshqaruvi bo'yicha dunyo yetakchilaridan biri hisoblanadi. U yerda AI texnologiyalari davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirishda keng qo'llanilmoqda. AI texnologiyalari sud jarayonlarida foydalanilmoqda. Masalan, huquqiy masalalarni avtomatik tarzda hal qilish tizimlari ishlab chiqilgan.

Samaradorlik natijalari: Davlat xizmatlarini ko'rsatish tezligi sezilarli darajada oshdi. Fuqarolar tomonidan davlat xizmatlariga murojaat qilish uchun sarflanadigan vaqt 80% ga qisqardi. Davlat xarajatlari sezilarli darajada kamaydi.

Singapur: Singapur sun'iy intellektdan davlat boshqaruvida katta miqyosda foydalanadigan davlatlardan biridir. 2019-yilda Singapur hukumati AI Singapur dasturini ishga tushirdi. Bu dastur davlat boshqaruvining barcha sohalarida texnologiyalarni kengroq joriy etishni maqsad qilgan.

Samaradorlik natijalari: AI texnologiyalaridan foydalanish orqali transport sohasidagi avariya holatlari 30% ga kamaydi. Davlat sektoridagi jarayonlarni avtomatlashtirish natijasida samaradorlik 20-30% ga oshdi.

Xitoy: Xitoy hukumatining "AI-2030" dasturi davlat boshqaruvida AI texnologiyalarini keng joriy qilishni o'z ichiga oladi. Xitoyda xavfsizlik monitoringi, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda AI texnologiyalari keng ko'lama qo'llanilmoqda.

Samaradorlik natijalari: Xavfsizlik monitoringi tizimlari orqali jinoyatchilik darajasi sezilarli darajada kamaydi. AI asosida tibbiyot diagnostikasi samaradorligi 60-70% ga oshdi. Jamoatchilik fikri va qabul qilish statistikasi:

Davlat boshqaruvida AI texnologiyalaridan foydalanishga doir jamoatchilik fikri va statistika ko'rsatkichlari quyidagicha:

Yevropa Ittifoqi: 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, Yevropa Ittifoqida jamiyatning 61% fuqarolari davlat boshqaruvida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashga ijobiy qaraydi va buni samarali deb hisoblaydi. Biroq, 39% fuqarolar AI texnologiyalarining nohaq foydalanishidan xavotfirda.

AQSh: Pew Research Center tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2023-yilda AQSh fuqarolarining 56% davlat boshqaruvida AI texnologiyalari foydalanishiga ijobiy qaraydi, biroq 44% bu texnologiyalardan noto'g'ri foydalanish xavfini ko'radi.

Osiyo davlatlari: Osiyoda davlat boshqaruvida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga nisbatan ijobiy munosabat ancha yuqori. Xitoy va Janubiy Koreyada bu ko'rsatkich 75-80% ni tashkil etadi. Bu davlatlar texnologik taraqqiyotga katta e'tibor beradi va fuqarolar sun'iy intellektning samaradorligiga ishonadi.

Bu ko'rsatkichlardan xulosa qilib aytganda sun'iy intellektning davlat boshqaruvidagi o'rnnini anglash va uni rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Muvaffaqiyatli loyihalar va AI texnologiyalari xalqaro miqyosda katta samaradorlikka erishgan bo'lsa-da, fuqarolar xavotir va ehtiyyotkorlikni ham e'tiborga olishadi.

Foydalanilgan abdiyotlar:

1. <https://www.oxfordsocialindex.com/news-events/global-public-opinion-split-on-benefits-of-ai-finds-new-oxford-study/>
2. OECD (2024), "Governing with Artificial Intelligence: Are governments ready?", OECD Artificial Intelligence Papers, No. 20, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/26324bc2-en>.
3. Government at a Glance 2023 https://www.oecd-ilibrary.org/governance/use-of-artificial-intelligence-in-the-public-sector-2022_bb3633c8-en
4. https://ai-watch.ec.europa.eu/publications/ai-watch-artificial-intelligence-public-services_en
5. Global Trends in Government Innovation 2023 - Observatory of Public Sector Innovation <https://oecd-opsi.org/publications/trends-2023/>